

O‘ZBEKISTONDA YUK VA YO‘LOVCHI TASHISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi

TDIU, “Biznes boshqaruvi” kafedrasida tayanch doktoranti

E-mail: mrs.anvarova@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola O‘zbekistonda yuk va yo‘lovchi tashish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlarni taklif etadi. Tadqiqotda transport infratuzilmasining samaradorligi, logistika tizimlarini rivojlantirish, ekologik xavfsizlik va raqamlashtirish jarayonlarini transport sohasiga integratsiya qilish masalalari ko‘rib chiqilgan. Maqolada O‘zbekiston transport tizimining hozirgi holati tahlil qilinib, temir yo‘l, avtomobil, havo va suv transportining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar o‘rganilib, transport xizmatlarining sifatini oshirish va barqaror rivojlanishni ta‘minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari yuk va yo‘lovchi tashish tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: transport tizimi, yuk tashish, yo‘lovchi tashish, logistika, raqamlashtirish, ekologik barqarorlik, transport infratuzilmasi, ilmiy-uslubiy yondashuvlar.

Аннотация

Данная научная статья посвящена исследованию научно-методологических подходов, направленных на совершенствование системы грузоперевозок и пассажирских перевозок в Узбекистане. В статье рассматриваются вопросы эффективности транспортной инфраструктуры, развития логистических систем, экологической безопасности и интеграции процессов цифровизации в транспортную сферу. Автор проводит анализ текущего состояния транспортной системы Узбекистана, охватывая железнодорожный, автомобильный, воздушный и водный транспорт. Также исследуется международный опыт и предлагаются рекомендации по повышению качества транспортных услуг и обеспечению устойчивого развития. Результаты исследования содержат практические рекомендации по модернизации системы перевозок, внедрению инновационных технологий и созданию эффективных механизмов управления.

Ключевые слова: транспортная система, грузоперевозки, пассажирские перевозки, логистика, цифровизация, экологическая устойчивость, транспортная инфраструктура, научно-методологические подходы.

Abstract

This scientific article explores the scientific and methodological approaches aimed at improving the cargo and passenger transportation system in Uzbekistan. The article examines the efficiency of transport infrastructure, the development of logistics systems, ecological safety, and the integration of digitalization processes into the transport sector. The study analyzes the current state of Uzbekistan’s transport system,

covering rail, road, air, and water transportation. It also examines international practices and provides recommendations to improve the quality of transport services and ensure sustainable development. The findings offer practical recommendations for modernizing the transportation system, introducing innovative technologies, and establishing effective management mechanisms.

Keywords: transport system, cargo transportation, passenger transportation, logistics, digitalization, ecological sustainability, transport infrastructure, scientific and methodological approaches.

KIRISH

O‘zbekistonda transport tizimi mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning samaradorligi va raqobatbardoshligi milliy va xalqaro savdoning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, yuk va yo‘lovchi tashishni tashkil etish masalasi bugungi kunda dolzarb bo‘lib, bu yo‘nalishda samarali ilmiy-uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi, avvalo, O‘zbekistonning strategik geografik joylashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, mamlakat hududi xalqaro transport yo‘laklarining markazida joylashgan. Shu sababli, yuk va yo‘lovchi tashishni ilmiy asoslangan usullarda tashkil etish O‘zbekistonning mintaqaviy transport markaziga aylanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, bugungi global iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida transport xizmatlariga bo‘lgan talabning o‘sishi, logistika tizimlarini rivojlantirish, ekologik xavfsizlik va raqamlashtirish jarayonlarini transport sohasiga integratsiya qilish kabi masalalar ilmiy izlanishlarni kengaytirishni talab etmoqda. Ushbu tadqiqot, ayniqsa, mahalliy transport korxonalarini uchun samarali boshqaruv modellarini ishlab chiqish va iqtisodiy barqarorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli, yuk va yo‘lovchi tashishni amalga oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini o‘rganish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham dolzarb masala hisoblanadi. Bu mavzu bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlar mamlakatning transport-logistika tizimini yangi bosqichga olib chiqish va iqtisodiy o‘shishga xizmat qiladi (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2024; Transport sohasi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, 2019).

ADABIYOTLAR SHARHI

Klassik iqtisodiy nazariyalar, global geosiyosiy muammolar va inqirozli vaziyatlar kontekstida transport xizmatlarini rivojlantirish, xususan, avia yuk tashuvlarini rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyalari turli soha va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatiga – birinchi navbatda, milliy manfaatlarini ta‘minlash uchun strategik "Yutuq" bo‘lganlarga nisbatan – faol muhokama qilinmoqda. Bir necha o‘n yillar davomida iqtisodiy integratsion guruhlar faoliyati doirasida transport va yuk tashish modellari asosiy masalalar sifatida muhokama qilingan. EOIIga a‘zo davlatlarda avia transportda yuklarni tashish modelini shakllantirish muammolari xarajatlar mexanizmi va resurslar bilan ta‘minlash modellarini, shuningdek, logistika

faoliyatini rivojlantirish va uning samaradorligini takomillashtirish zarurati bilan bog‘liq¹.

Asosiy to‘siqlar sifatida, Bauersoks Donald Dj quyidagilarni nazarda tutgan: birinchidan, aviatransportda yuk tashuvlarini amalga oshirishda innovatsiyalarni kiritish bilan bog‘liq masalalar; ikkinchidan, aviatransportda yuk tashuvlarini tashkil etishda va uni oddiy matematik shakllardan foydalanishga imkon bermaydigan rasmiy optimallashtirish modellarini ishlab chiqishda yuzaga keladigan noaniqlik va nomuvofiqlik. Rasmiy optimallashtirish esa cheklangan va innovatsion tadbirkorlikni tahlil qilish uchun noqulay vositadir².

METODOLOGIYA

Tadqiqotning uslubiy asosini transport xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish sohasidagi xorijiy va o‘zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan fundamental tushuncha va qoidalarga asoslanadi. Muallif shuningdek, ilmiy jamoalarning transport xizmatlarini ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, transportning barcha turlaridan cheklangan va cheksiz foydalanish sharoitida ularning samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganish, shakllantirish va qo‘llash sohasidagi tadqiqotlar natijalariga tayangan. Iqtisodiyotda tovarlarni tashish va iste‘mol qilishning yangi yo‘nalishlarini ishlab chiqish, davlat organlari hisobotlari va statistik ma‘lumotlar, qonunchilik va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, O‘zbekiston kompaniyalarining uzoq muddatli rivojlanish dasturlari va hisobotlari bu jarayonga kiritilgan. Tadqiqot jarayonida funksional yo‘naltirilgan qidiruv, iqtisodiy va statistik tahlil, prognozlash va modellashtirishning turli usullari va vositalaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston transport tizimi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida markaziy o‘rin tutadi. Geografik jihatdan O‘zbekiston Markaziy Osiyoda joylashgani sababli, u transport yo‘llari uchun muhim o‘tish nuqtasi hisoblanadi. Mamlakat hududlarini bog‘laydigan yaxshi rivojlangan transport infratuzilmasi mavjud bo‘lib, tizimning asosiy tarmoqlariga temir yo‘l, avtomobil yo‘llari, havo transporti va suv transporti kiradi.

O‘zbekiston transport tizimi umumiy ravishda mamlakat iqtisodiyoti va xalqaro aloqalarining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, mavjud infratuzilmani yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish, transport tizimining samaradorligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Mamlakatda xalqaro savdo va logistika sohalarida hamkorlikni rivojlantirish, transport yo‘llarini takomillashtirish va

¹ Аникин Б.А., Тяпухин А.П. Коммерческая логистика: учебник. М.: ТК Velbi, изд. Проспект, 2021.-432s.

² Bauersoks Donald Dj., Kloss Deuyvid Dj. Логистика: интегрированная цепь поставок/ пер. с англ. М.: ЗАО «Olimp — Biznes», 2020.-640 s.

zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali transport tizimi yanada samarali bo‘lishi mumkin (1-jadval).

1-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi¹

Respublika va shaharlar ko‘lamida	2021	2022	2023	2024-chorak1	2024-chorak2	2024-chorak3	2024-chorak4
O‘zbekiston Respublikasi	550.1	608.2	664.9	154.6	331.1	512.1	698.2
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	30.8	33.4	35.1	7.9	16.8	26.3	35.9
Andijon viloyati	41.2	46.6	48.4	11.2	23.6	36.6	49.9
Buxoro viloyati	57.6	61.2	61.4	14.9	31.1	47.6	65.4
Jizzax viloyati	31.8	34.3	33.8	8	15.6	24	33.3
Qashqadaryo viloyati	36.7	39.9	42.6	9.8	20.7	32.1	44
Navoiy viloyati	32.7	32.8	33.6	7.2	14.9	23.4	33.7
Namangan viloyati	27.4	29	30.8	6.9	16.7	26.2	35.2
Samarqand viloyati	47.8	51.9	53.8	12.5	26.6	41.2	55.8
Surxondaryo viloyati	54	60.2	76.4	18.1	38.9	59.8	81.2
Sirdaryo viloyati	17.4	17.9	18.5	4	8.6	13.7	18.8
Toshkent viloyati	51.4	62.4	79	17.9	40.4	62.9	85.9
Farg‘ona viloyati	48.5	52.1	58	14	30.1	46.2	62.9
Xorazm viloyati	33.5	36.2	36.4	8.6	17.8	27.4	37.5
Toshkent shahri	39.4	50.2	57.2	13.6	29.1	44.7	59.6

1-jadvalda O‘zbekiston Respublikasi va uning hududlari (shu jumladan respublikalar va viloyatlar) bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi ko‘rsatilgan bo‘lib, shuni ko‘rishimiz mumkinki, 2021-yilda 550,1 million tonna bo‘lgan yuk tashish hajmi 2023-yilga kelib 664,9 million tonnagacha o‘sgan. 2024-yil choraklar bo‘yicha tahlil qilinganda esa, yuk tashish hajmi sezilarli o‘sganligi aniq: 1-chorakda 154,6 million tonna, 4-chorakda esa 698,2 million tonnagacha yetgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasida yuk tashish hajmi doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Bu iqtisodiyotning rivojlanishi va transport sohasidagi yaxshilanishlar natijasidir. Toshkent viloyati va shahri, shuningdek, Surxondaryo viloyati kabi yirik hududlar yuk tashishda yetakchi o‘rinni egallamoqda. Choraklik ma’lumotlar yil davomida yuk tashish hajmining sezilarli o‘sishini ko‘rsatib, iqtisodiy faollikning oshishini tasdiqlaydi².

O‘zbekistonning yuk tashish tizimi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ushbu tizimning samarali ishlashi davlatning sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo va tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda yuk tashish tizimining holati bir nechta omillarga bog‘liq bo‘lib, uning samaradorligiga transport infratuzilmasining rivojlanishi, texnik ta’minot, logistika tarmoqlarining optimallashtirilishi va samarali

¹ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

² Миротин Л.Б., Ташбаев И.Э. Логистика для предпринимателей: основные понятия, положения и процедуры: учебное пособие. М.: INFRA-M, 2021.

boshqarish tizimlari ta'sir qiladi. Quyida O'zbekiston yuk tashish tizimining hozirgi holati haqida asosiy jihatlar ko'rib chiqiladi:

a) Temir yo'l transporti

O'zbekiston temir yo'llari tizimi mamlakatning yuk tashishida asosiy tarmoq sifatida faoliyat yuritadi. O'zbekistonning temir yo'l infratuzilmasi 2019-yilda «O'zbekiston temir yo'llari» davlat aksiyadorlik kompaniyasining tashkil etilishi bilan yanada takomillashtirildi. Hozirgi kunda temir yo'l orqali yirik sanoat va savdo markazlaridan yuk tashish amalga oshiriladi. Biroq, temir yo'l tarmog'ining ba'zi qismlari eskirganligi sababli, ayrim hududlarda transport samaradorligi past bo'lishi mumkin. Shuningdek, temir yo'llarning yirik logistika markazlari bilan bog'lanishida muammolar mavjud. Temir yo'l transportining samaradorligini oshirish uchun modernizatsiya va yangi tarmoqlarni yaratish zarur.

b) Avtomobil transporti

Avtomobil transporti O'zbekistonda yuk tashishning eng ko'p ishlatiladigan tarmog'i hisoblanadi. Mamlakatda avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi va ularning holatini yaxshilash bo'yicha ishlar davom etmoqda, biroq ayrim hududlarda yo'l tarmog'ining sifati va kengayishi hali ham cheklangan. Avtomobil transporti orqali asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, tovarlar va qurilish materiallari tashiladi. Hozirgi kunda avtomobil transportining samaradorligini oshirish uchun yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ekologik ta'sirlarni kamaytirish zarur. Ko'plab yangi avtomobil yo'llari qurilayotgan bo'lsa-da, ayrim mintaqalarda hali ham jiddiy infratuzilma muammolari mavjud¹.

c) Havo transporti

O'zbekistonning havo transporti tizimi xalqaro yuk tashishda, ayniqsa, tezkor va yuqori qiymatli tovarlarni tashishda muhim rol o'ynaydi. Toshkent xalqaro aeroporti hamda boshqa yirik aeroportlar havo transportining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Havo transporti tizimi orqali ko'plab yuklar xalqaro miqyosda amalga oshiriladi, ayniqsa, eksport-import operatsiyalarida katta ahamiyatga ega. Biroq, havo transportining narxlarining yuqoriligi va infrastruktura imkoniyatlarining cheklanganligi ba'zi muammolarni keltirib chiqaradi. O'zbekistonning havo transporti tizimining samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va yangi havo yo'llarini ochish zarur.

Yuk tashish tizimining samarali ishlashi uchun logistika tarmoqlari o'rtasida yaxshilangan integratsiya zarur. Mavjud transport tizimlarining o'zaro bog'lanishi va optimallashtirilishi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda O'zbekistonda multimodal transport tizimi ishlab chiqilmaganligi sababli, transportning bir nechta tarmoqlari o'rtasida koordinatsiya va samarali boshqaruvni ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston transport tizimida yo'lovchi tashish juda muhim o'rin tutadi, chunki u nafaqat ichki, balki xalqaro aloqalarni ham ta'minlaydi. Yo'lovchi tashishning samarali tashkil etilishi mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda yo'lovchi tashish tizimi yaxshi rivojlanayotgan bo'lsa-da,

¹ F.Xo'jaev. "Logistika" darslik. Toshkent. Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi 2022-yil.

bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ularning yechimi tizim samaradorligini oshirishga yordam beradi (2-jadval).

2-jadval.

Havo transporti orqali tashilgan yuk hajmi¹

Davlat nomi	Transport turi	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston	Havo transporti(million ton-km)	126.79 76	89.430 28	70.498 35	20.005 49	38.025 91
Tajikiston	Havo transporti(million ton-km)	2.8986 1	2.337	2.5060 05	1.9181 8	0.9509 89
Turkmaniston	Havo transporti(million ton-km)	19.484	16.916	16.557 84	4.3474 07	0.6841 75
Rossiya	Havo transporti(million ton-km)	6845.2 3	6810.6 1	6481	4314.6 05	5888.4 17
AQSH	Havo transporti(million ton-km)	41591. 55	42985. 3	42498. 26	40793. 09	46004. 65

2-jadvalda beshta mamlakat (O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Rossiya Federatsiyasi va AQSh)ning havo transporti orqali tashilgan yuk hajmi ko‘rsatilgan bo‘lib, yurtimizda 2020-yildan 2022-yilgacha yuk hajmi keskin kamaygan, 2023–2024-yillarda esa o‘sish kuzatilgan.

O‘zbekiston yo‘lovchi tashish tizimi asosan temir yo‘l, avtobus, taksi va havo transporti orqali amalga oshiriladi. Temir yo‘l tarmog‘i, ayniqsa, poytaxt Toshkent bilan boshqa yirik shaharlarga bo‘lgan yo‘lovchi oqimlarini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, avtobuslar va mikroavtobuslar shaharlararo va viloyatlararo yo‘lovchi tashishining asosiy vositalariga aylangan.

Ba’zi transport vositalarining eskirganligi va texnik holatining yomonligi yo‘lovchilarga xavfsizlik nuqtai nazaridan jiddiy xavf tug‘diradi. Bu muammo ayniqsa avtobuslar va poyezdlarda sezilarli bo‘lib, yo‘lovchi tashishdagi sifatsiz xizmatlarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, ko‘plab avtobuslar va poyezdlar eski model bo‘lib, zamonaviy talablarni qondirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Yo‘lovchi tashishning tartibga solinishi va nazorati ayrim hududlarda yetarlicha samarali emas. Avtobuslar va taksilarni boshqarish tizimi ba’zan tartibsiz va nazoratsiz bo‘lib, bu esa yo‘lovchilarning xavfsizligi va qulayligi uchun muammo tug‘diradi. Shuningdek, poyezdlar va boshqa transport turlaridagi xizmatlar hamda tariflar bo‘yicha notekisliklar mavjud.

Yangi avlod transporti uchun moslashtirilgan stansiyalar va terminal binolarining yetishmasligi ham yo‘lovchi tashish tizimining samarali ishlashiga to‘sqinlik qiladi. Yirik shaharlarda, ayniqsa, Toshkentda yo‘lovchilar uchun qulay transport terminal va bekatlar mavjud bo‘lsa-da, kichik shaharlarda va qishloq hududlarida bunday infratuzilma rivojlanmagan.

¹ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yo'lovchi tashish xavfsizligi ayrim transport turlarida past darajada qolmoqda. Avtobuslar va taksilar xavfsizlik talablari to'liq bajarilmasligi, shuningdek, poyezdlarning eskirgan xavfsizlik tizimlari yo'lovchilarni xavf ostiga qo'yadi. Bu muammo, yo'lovchilarning xavfsizligini ta'minlash uchun yangi standartlarni joriy etishni talab qiladi¹.

Ba'zi hududlarda yo'lovchi va yuk tashish tizimlari o'rtasidagi koordinatsiya yetarlicha yaxshi emas. Masalan, temir yo'l tarmog'ida yo'lovchi va yuk tashish o'rtasida to'g'ri va samarali integratsiya mavjud emas, bu esa transportning umumiy samaradorligini pasaytiradi.

Dunyo tajribasi transport tizimini rivojlantirishda bir qancha ilg'or yondashuvlar va amaliyotlarni taklif qiladi. Bir nechta mamlakatlar transport tarmoqlarini optimallashtirish va integratsiya qilish orqali samaradorlikni oshirishga muvaffaq bo'lgan. Masalan, Germaniya, Yaponiya va Singapur kabi mamlakatlar temir yo'l, avtobus va havo transportini o'zaro integratsiya qilish orqali yuqori darajada samarali transport tizimlarini yaratgan. Bu mamlakatlarda multimodal transport tizimi joriy etilgan bo'lib, bir nechta transport tarmog'idan foydalangan holda yo'lovchilar va yuklarni tez va arzon yetkazish mumkin.

O'zbekiston sharoitida ham multimodal tizimni yaratish va transport tarmoqlarini o'zaro bog'lash zarur. Temir yo'l va avtomobil transporti tizimini modernizatsiya qilish, shuningdek, shaharlararo va viloyatlararo yo'lovchi tashishni optimallashtirish orqali xizmatlar sifatini oshirish mumkin. Bundan tashqari, xalqaro tajribalarga asoslanib, O'zbekistonda zamonaviy logistika markazlarini tashkil etish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonning transport tizimi rivojlanish bosqichida bo'lib, ko'plab infratuzilma loyihalari amalga oshirilmoqda. Biroq, mavjud tizimda samaradorlik va integratsiya masalalari bo'yicha hali ham bir qator muammolar mavjud. Jumladan, yuk tashishda foydalaniladigan transport vositalarining eskirganligi, yuqori tezlikdagi tizimlar va xavfsizlik muammolari sezilarli darajada o'z aksini topmoqda. Transportni boshqarishning ilmiy-uslubiy yondashuvlari orqali aqlli transport tizimlarini yaratish va ularni integratsiya qilish orqali mavjud muammolarni samarali hal etish imkoniyatlari mavjud. Yangi texnologiyalar va metodologiyalar, ayniqsa, transportning barcha tarmoqlarini optimallashtirishga yordam beradi. Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi tajribalar O'zbekistonda transport tizimini rivojlantirish uchun muhim yo'riqnomalarni taqdim etadi. Boshqa mamlakatlar tajribasidan foydalanish va ularni O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish tizim samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

¹ . F.Xo'jaev, I.Muxtorova "Xalqaro logistika" o'quv qo'llanma Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi 2023-yil.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 32 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi."
2. Аникин В.А., Тяпухин А.П. *Коммерческая логистика: учебник*. М.: ТК Велби, изд. Проспект, 2021 – 432 s.
3. Bauersoks Donald Dj., Kloss Deyvid Dj. *Логистика: интегрированная цепь поставок / пер. с англ.* М.: ЗАО «Олимп — Бизнес», 2020 – 640 s.
4. Миротин Л.Б., Ташбаев И.Э. *Логистика для предпринимателей: основные понятия, положения и процедуры: учебное пособие*. М.: INFRA-M, 2021.
5. F. Xo'jaev. "*Logistika*" *darslik*. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot, 2022-yil.
6. F. Xo'jaev, I. Muxtorova. "*Xalqaro logistika*" o'quv qo'llanma. Innovatsion rivojlanish nashriyot, 2023-yil.
7. Transport sohasi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, 2019. "O'zbekistonda transport-logistika infratuzilmalari imkoniyatlarini oshirishning dolzarb masalalari" mavzusidagi davra suhbat.
8. M. Thenmozhi; Indian Institute of Technology, 2018. *Group Behaviour*. Chinnai: s.n.
9. O'zbekiston Respublikasi Transport Vazirligi maxsus sahifasi: Mintrans.uz, 28 yanvar, 2025-yil.
10. Nunes, F., 2024. *Implementing Key Performance Indicators and Designing Dashboard Solutions in an Automotive Components Company*. MDPI, 3 july.
11. Perallos, D. A., Hernandez-Jayo, D. U., Zuazola, D. I. G. & Onieva, D. E., 2015. *Intelligent Transport Systems: Technologies and Applications*. Spain: University of Deusto.
12. Peterman, D. R. & Mallett, W. J., 2009. *High Speed Rail (HSR) in the United States*. Congressional Research, 8 December.
13. Stat.uz, 2024. *TRANSPORT STATISTIKASI KO'RSATKICHLARINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA USLUBIY NIZOM*. 2025-yil.
14. The World Bank, 2021. *Air transport, freight (million ton-km) — Uzbekistan*. 25 yanvar, 2025-yil.
15. Larminie, J. & Lowry, J., 2012. *ELECTRIC VEHICLE TECHNOLOGY*. 2nd ed. UK: John Wiley & Sons, Ltd.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournlbot](https://t.me/marketinjournlbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**